

## SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISHDA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH MASALALARI

*Sultonov Jasur Rustam o'g'li*

*Adliya vazirligi huzuridagi Qonunchilikni  
tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini  
baholash instituti katta maslahatchisi*

Bugungi raqamlashtirish jarayonlari sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalaridan davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, bank-moliya tizimi, marketing va boshqa ijtimoiy munosabatlarning deyarli barcha sohalarida faol foydalanilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi va ulardan qonuniy foydalanish masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda.

Biroq, raqamli taraqqiyot bilan bir qatorda insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, ayniqsa, shaxsiy hayot daxlsizligi hamda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki sun'iy intellekt orqali shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, o'zgartirish va tarqatish imkoniyatlarining kengayishi ushbu munosabatlarni aniq huquqiy mexanizmlar asosida tartibga solishni talab etadi. Sun'iy intellektning funksional imkoniyatlari esa ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

### **Sun'iy intellekt o'zi nima?**

Sun'iy intellekt — inson tafakkuriga taqlid qiluvchi, mustaqil o'rganish, ma'lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va murakkab vazifalarni bajarishga qodir texnologik yechimlar majmui hisoblanadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari orqali qayta ishlanadigan axborotlarning asosiy qismini shaxsga doir ma'lumotlar tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron shaklda, qog'ozda yoki boshqa moddiy tashuvchilarda qayd etilgan axborot **shaxsga doir ma'lumot** hisoblanadi. Sodda tilda aytganda, bunday ma'lumotlarga fuqaroning ism-familiyasi, yashash manzili, telefon raqami, biometrik ma'lumotlari, fotosuratlar, bank ma'lumotlari, tibbiy holati va boshqa identifikatsiyalovchi axborotlar kiradi. Mazkur ma'lumotlarning noqonuniy qayta ishlanishi yoki tarqatilishi insonning huquqlariga zarar yetkazishi mumkin. Shu bilan birga, sun'iy intellektning rivojlanishi fuqarolarning shaxsiy daxlsizligini xavf ostiga qo'yimoqda.

*Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil davomida taniqli shaxslarning fotosuratlarini va videolarini sun'iy intellekt yordamida qalbakilashtirish 50 barobar oshgan. 2023-yilda O'zbekistonda sun'iy intellekt yordamida qayta ishlangan noqonuniy materiallarni tarqatish*

bo'yicha 1129 ta, 2024-yilda 3553 ta holat qayd etilgan. Fuqarolarning ishonchiga kirish uchun boshqa shaxslarning ovozlari va tasvirlaridan foydalanildi<sup>1</sup>.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xususan, sun'iy intellektning turli sohalarga keng joriy etilishi ushbu texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solish zaruratini yuzaga keltirdi. Chunki sun'iy intellekt nafaqat katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beradi, balki shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish jarayonida muayyan huquqiy xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, milliy qonunchilikni zamonaviy texnologik jarayonlarga moslashtirish maqsadida 2026-yilda **“Axborotlashtirish to'g'risida”gi Qonunga** tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Mazkur o'zgarishlar bilan sun'iy intellekt texnologiyasining huquqiy maqomi, undan foydalanish shartlari va talablari belgilandi.

Qayd etish kerakki, O'zbekiston Respublikasi hududida sun'iy intellektga asoslangan tizimlarni ishlab chiquvchi, joriy etuvchi, tartibga soluvchi va ulardan foydalanuvchi shaxslar soni ham ko'payib bormoqda. Foydalanuvchilar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar himoyasini kuchaytirish maqsadida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish hamda qo'llashning **etika qoidalarini** ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Yakunda, mazkur qoidalar sun'iy intellekt tizimlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish jarayonida qonuniylik, shaffoflik, axborot xavfsizligi hamda insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashga xizmat qiladi.

### **Qonunchilikda javobgarlik mavjudmi?**

Avvalo, shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlov berish, ularni ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari yoki Internet orqali tarqatish ma'muriy va ayrim hollarda jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Mazkur harakatlar sun'iy intellekt texnologiyalari vositasida sodir etilgan taqdirda ham, qonunchilikda belgilangan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 46<sup>2</sup>-moddaga muvofiq, shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish yoki yo'q qilish **ma'muriy huquqbuzarlik** sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarga nisbatan fuqarolar uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima qo'llanilishi belgilangan.

<sup>1</sup> <https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/15/si/>

## Xalqaro tajriba

Sun'iy intellekt bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solishning muhim xalqaro manbalaridan biri Yevropa Ittifoqining 2016/679-sonli GDPR (*General Data Protection Regulation*) reglamenti hisoblanadi. Mazkur reglament shaxsga doir ma'lumotlar egalarining keng qamrovli huquqlarini kafolatlaydi. Jumladan, shaxs o'z ma'lumotlarini boshqarish, ularni o'chirish (*"right to erasure"*, 17-modda), ma'lumotlarni boshqa tizimga ko'chirish, avval berilgan rozilikni bekor qilish hamda faqat avtomatlashtirilgan qarorlar asosida baholanishni (*SI inson taqdiriga oid muhim qarorlarni yolg'iz o'zi qabul qilishi*) rad etish huquqlariga ega.

Sun'iy intellekt tizimlari ko'pincha avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish mexanizmlariga asoslanganligi sababli, GDPR ushbu sohaga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, insonning huquq va erkinliklariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan algoritmik qarorlar faqat inson nazorati va ishtiroki mavjud bo'lgan hollarda qo'llanishi lozimligi belgilangan.

Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining 2024-yilda qabul qilingan "AI Act" reglamenti<sup>2</sup> sun'iy intellekt tizimlarini xavf darajasiga qarab tasniflash hamda ularning faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan muhim normativ hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat bilan sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida diskriminatsiya, noto'g'ri baholash hamda shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy qayta ishlash kabi salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Amaliyotda sun'iy intellekt tizimlari bilan bog'liq asosiy muammolar qatoriga shaxs rozilgisiz ma'lumotlarni yig'ish, ma'lumotlarning sizib chiqishi, algoritmik xatoliklar, diskriminatsion yondashuvning mavjudligi, shaffoflikning yetarli emasligi hamda operatorlarning huquqiy javobgarligi aniq belgilanmaganligi kiradi. Shu sababli, ko'plab davlatlar tomonidan shaxsga doir ma'lumotlarni minimallashtirish, maqsadli va qonuniy qayta ishlash, shaffoflikni ta'minlash, axborot xavfsizligi infratuzilmasini kuchaytirish, kriptografik himoya vositalaridan foydalanish hamda sun'iy intellekt tizimlarini sertifikatsiyadan o'tkazish kabi huquqiy va texnik mexanizmlar joriy etilmoqda.

O'zbekistondagi joriy tendensiya ham sun'iy intellekt sohasini kompleks tartibga soluvchi alohida qonunchilik hujjatini ishlab chiqish, shuningdek GDPR va "AI Act" tamoyillaridan foydalangan holda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish zaruratini ko'rsatmoqda.

## Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, mazkur texnologiyalardan noqonuniy foydalanish shaxsiy hayot daxlsizligi hamda shaxsga

<sup>2</sup> <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2024/1689/oj/eng>

doir ma'lumotlar xavfsizligiga tahdid solmasligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu sohani huquqiy jihatdan tartibga solishni kuchaytirish hamda raqamli savodxonlikni oshirish dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashda ehtiyotkorlik bilan yondashishni unutmasligi lozim.

### Foydalanilgan manbalar

1. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun, 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-son
2. "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun, 11.12.2003 yildagi 560-II-son
3. "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlar tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun, 21.01.2026 yildagi O'RQ-1115-son
4. Gazeta.uz internet nashri
5. <https://eur-lex.europa.eu>